



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Jamila Shodiyeva**

**Dilfuza Nurmanova**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi o'qituvchisi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti

## **BOLALARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodda kitob mutolaa madaniyatini yuksaltirish, texnologiya asrida undan unumli foydalanishni o'rgatish, o'quvchilar ongini yuksaltirish, barkamol avlod ruhida tarbiyalash haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** mutolaa, estetik did, kitobxonlik, tasavvur.

O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda kitob kuchli vosita bo'la oladi.

Kitob mutolaasidan o'tgan inson, undan o'ziga xulosa chiqaradi. Natijada o'z bilimini, dunyoqarashini kengaytiradi, bilimli, savodli, madaniyatli, jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, ruhan tetik va e'tiqodi mustahkam inson bo'lib yetishadi.

Bolalarimizni bog'cha yoshidan, boshlang'ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o'rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg'aytirish hozirgi kunimizning muhim masalalaridandir.

Shu maqsadda 2017-yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi.

Jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllantirish va kitobxon auditoriyasini kengaytirishda ularning yoshlariga qarab kitob taklif etish muhimdir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Shunga asosan, yosh xususiyatlari, tipologik jihatlari, ularning psixologik tayyorgarligi, ayniqsa, ulardagi fiziologik o'zgarishlar albatta hisobga olinishi zarur. Ma'lumki, mutolaaga kirishgan har bir o'quvchi kitob, asar, ertak, hikoya mazmunini to'g'ri idrok etishi kerak. Buning uchun hikoya, ertak qahramonlarini va voqealarini hayotiy obrazlarda tasavvur qilish yaxshi samara beradi. Bunday tasavvurlarni uyg'otishda dastlab kattalarning, jumladan, ota-onalarining, o'qituvchining ko'magi kerak bo'ladi.

Agar o'quvchilar maktabda bo'lsalar ekskursiyalar, sayrlar, filmlar ko'rsatish, o'qituvchining rolga kirib aytgan hikoyasi, o'zaro suhbatlashishlari katta ahamiyatga ega.

Hozirgi sinovli kunlarda esa bu ishlar oila davrasida o'tkaziladi. Ertak qahramonlarning ichki kechinmalarini his etish, ularning rasmlarini chizish, aka-ukalari yoki o'rtoqlari bilan uning voqealarini sahnalashtirish, ulardan xulosa chiqarish bola tasavvur olamini kengaytirmasdan qolmaydi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur.

Maktabda, oilada muhim vazifa - kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Oila kitobxonligi bu - oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir.

Bolalarda oilaviy kitobxonlikni rivojlantirishda jahon adabiyoti durdonalaridan foydalanishni ham tavsiya qilaman. Buning uchun til bilish kerak. Har qanday hikoya, ertakni o'z yozilgan tilida o'qish ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Ham til o'rganasiz, boshqa xalqlar madaniyatini, voqea-hodisalarni bilib olasiz.

Hozirgi kunda juda ko'p imkoniyat, sharoitlar yaratilmoqda. Kitob o'qigan o'quvchilarga, oilalarga mukofotlar tashkil qilingan.

Yurtimizning yirik kutubxonlari tomonidan elektron kutubxonalar shakllantirilgan bo'lib, uydan chiqmay turib ham elektron kitoblardan bemalol foydalanish mumkin. Bundan unumli va samarali foydalanish fursati yetdi.

O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirishda ota-ona bilan bir qatorda o'qituvchi ham ta'sir etishi mumkinligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchimiz. Agar o'qituvchi bolalarga o'ziga ishonch ruhini singdira olsa, bu uning katta g'alabasidir. Kitobxonlik - ana shu ishonch tuyg'usini uyg'otuvchi muhim vosita. Kitobxonlik o'quvchilarning boshqa o'quv



fanlarini o'zlashtirishidagina emas, umuman shaxs sifatida shakllanishida ham katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiya qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida qilgan ma`ruzasi. T.: 2016 yil

2. Shodmonova Sh.S. Oilada va maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Toshkent, 2001.

3. <http://www.tdi.uz>

4. <http://www.uzedu.uz>